

ROTATSIYA UCHUN XODIMNING ROZILIGI OLINISHI YOKI XODIM OLDINDAN XABARDOR QILINISHI SHARTMI?

Dildora Djurayeva

Bekobod shahar adliya bo'limi YXKM boshlig'i

Mehnat kodeksida “rotatsiya” tushunchasi mavjud emas. Mehnat kodeksida **“xodimni boshqa ishga o'tkazish”** tushunchasi ishlatiladi. MK 138-moddasiga ko'ra, xodim aynan o'sha ish beruvchida ishni davom ettirganda uning mehnat vazifalarini o'zgartirish xodimni boshqa ishga o'tkazish hisoblanadi.

MK 139-moddasiga ko'ra, xodimni boshqa ishga o'tkazish qaysi muddatga amalga oshirilayotganligiga qarab **boshqa ishga o'tkazish turlari doimiy va vaqtinchaga ajratiladi.**

MK 140-moddasiga ko'ra, xodimni boshqa ishga doimiy o'tkazishga **faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.** Xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish uning roziligi bilan amalga oshiriladi, bundan ushbu Kodeksning 145-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolinishi hollari mustasno.

“Rotatsiya” tushunchasi **“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonunda belgilangan** va Qonunning 39-moddasiga ko'ra, davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi uning shaxsiy va kasbga oid sifatlarini rivojlantirish, faoliyatining samaradorligini oshirish, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi uni egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimiga teng bo'lgan boshqa lavozimga **o'z roziligi bilan o'tkazish orqali amalga oshiriladi.**

Davlat fuqarolik xizmatida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida **majburiy ravishda rotatsiya** qilinishi lozim bo'lgan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining ro'yxati belgilanadi. Ushbu lavozimlarni egallab turgan davlat fuqarolik xizmatchilarining rotatsiyasi ularning rozilgisiz amalga oshiriladi.